

“XX ASR ADABIYOTI MANZARALARI”DA MILLIY UYG‘ONISH DAVRI ADABIY-SIYOSATI

Matkurbanova Oygul Mamatsalayevna

filologiya fanlari bo‘yicha (Phd) mustaqil izlanuvchisi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: matkurbonova93@mail.ru

***Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor Naim Karimovning “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” nomli ilmiy asarida keltirilgan ma‘lumotlar asosida XX asr milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining adabiy-siyosati atroflicha tadqiq etildi. Adabiyotshunos olim “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” ilmiy asarida olim XX asr o‘zbek adabiyotining shakllanish va taraqqiyot yo‘lining mumkin qadar kitobxonlarga noma‘lum bo‘lgan jarayonlarini yoritishga, O‘zbekiston yaqin tarixining o‘qilmay qolgan hamda noto‘g‘ri yoritib kelingan sahifalarini qayta tiklashga harakat qildi. Shuningdek, muallif davrning eng muhim siyosiy-ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy lahvalarini ham tanishtirishni maqsad qildi. Shu manbalar asosida milliy uyg‘onish davri adabiy-siyosati ilmiy tadqiq etildi.*

***Kalit so‘zlar:** milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti, jadidlar harakati, adabiy-siyosat, Turkiston, adabiyot, mustamlaka, ozodlik.*

LITERARY POLICY OF THE NATIONAL RENAISSANCE PERIOD IN “THE LITERATURE LANDSCAPES OF THE 20TH CENTURY”

***Abstract:** In the article, the literature and politics of the Uzbek literature of the national renaissance period of the 20th century was thoroughly researched based on the information provided in the scientific work of the scientist of the Republic of Uzbekistan, Professor Naim Karimov entitled “Landscapes of Uzbek Literature of the*

20th Century”. In his scientific work “Landscapes of Uzbek Literature of the 20th Century”, the literary scholar tries to illuminate the processes of the formation and development of Uzbek literature of the 20th century, which are unknown to the readers as much as possible, the unread and inaccurate recent history of Uzbekistan. Gry tried to restore the illuminated pages. The author also aimed to introduce the most important political, social, cultural and educational events of the time. On the basis of these sources, the literature and politics of the national renaissance period were scientifically researched.

Key words: *Uzbek literature of the period of national renaissance, modernist movement, literature and politics, Turkestan, literature, colonialism, freedom.*

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida o‘zining serunum ilmiy faoliyati, yutuqlari, yangiliklari ila maktab yarata olgan ustoz, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor Naim Karimovdir. Uning bir qator ilmiy izlanishlarida o‘zbek adabiyotining kechasi, buguni haqida haqqoniy tasavvur aks etadi. Ayniqsa, “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” ilmiy asarida olim XX asr o‘zbek adabiyotining shakllanish va taraqqiyot yo‘lining mumkin qadar kitobxonlarga noma‘lum bo‘lgan jarayonlarini yoritishga, O‘zbekiston yaqin tarixining o‘qilmay qolgan hamda noto‘g‘ri yoritib kelingan sahifalarini qayta tiklashga harakat qildi. Shuningdek, muallif mazkur davrning eng muhim siyosiy-ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy lahvalarini ham tanishtirishni maqsad qiladi. Biz ushbu manzaralarda XX asr adabiy-siyosiy muhitini yanada teranroq anglashga muvaffaq bo‘lamiz.

Naim Karimov XX asr o‘zbek adabiyotini tadqiq etar ekan, uni uchta katta adabiy davrlarga bo‘ladi. Bular: 1) milliy uyg‘onish davri adabiyoti, 2) ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti va 3) mustaqillik davri adabiyotir². Biz muallif tomonidan keltirilgan ma‘lumotlar asnosida milliy uyg‘onish davri adabiyotida adabiy-siyosiy muhit qanday kechganini yoritishga harakat qildik.

² Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: “О‘ЗБЕКИСТОН”НМИУ, 2008 й; 6-316.

Xo‘sh, bu davrda adabiy-siyosiy muhit qanday edi? Avvalo, bu savolga javob qidirar ekanmiz, Turkistonning XIX asr oxiri XX boshlarida adabiy jarayonlarining sustlashayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bunga siyosiy holat sabab bo‘ladi. Chunki bu davrda Turkiston bir tarafdin mustamlakachi hokimiyati, ikkinchi tarafdin mahalliy amaldorlar nazorati ostida edi. Qashshoqlik, savodsizlik avj olgan, xalq tashqi dunyodan uzilgan, qo‘rquv va iskanjada yashayotgan davr edi. Muallif bu davrni yanada yaqqol tasavvur hosil qilish uchun M.Behbudiyning “Padarkush” pyesasi, Fitratning “Munozara”si, Cho‘lponning “Qurboni jaholat”, “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyalarini va boshqa o‘nlab jadid adabiyoti namunalarini o‘qishning o‘zi kifoya etishini ta’kidlaydi. Mustamlakachi hukumat xalqni savodsiz holatda tutishga harakat qilgan. Biz buni asarda keltirilgan Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga muayyan darajada ta’sir o‘tkazgan kishilardan biri N.I.Ilminskiyning maslakdoshi Pobedonosevga yozgan maktubida: “Olimlardan va o‘ta bilimli o‘qituvchilardan ehtiyot bo‘linglar. O‘ta odobli va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarga qaraganda ularni juda qattiq kuzatuv ostiga olinglar” kabi “dono” maslahatidan ham³, - anglashimiz mumkin. Shunday istibdod davrida xalqqa taraqqiyot haqidagi o‘ylar chetdan kirib kelgan gazetalar orqali uyg‘ona boshlandi.

Ayniqsa, olim asr boshlaridagi Turkiston xalqlarining har jihatdan dunyo taraqqiyotidan ortda qolayotganligi, yevropaliklar va o‘zbeklar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatish uchun Tavalloning:

*Yovrupo ahli, siz quloq solingiz,
Biz hunarlar yozib tonushtiramiz.
Kelturing zanburak, qurol necha xil,
Bizni sopqon ila otushtiramiz.
Aftobomil, arobangiz qayda,
Hoqand arba bilan chopushtiramiz
Biz bilurmiz, siz to‘gri so‘zni quli,*

³Ўша китоб, 12-бет

Lek biz yolg‘onlar qotushtiramiz, - kabi mislarini keltirgan holda namoyon etadi. Misralardan ayon bo‘ladiki, xalq ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan qoloq, siyosiy ong rivojlanmagan. Bunga yana dalil etib Naim Karimov chor Rossiyasining xufiyalaridan biri Eron va Turkiyadagi milliy ozodlik harakatlari hamda 1905-yil rus inqilobidan keyingi Buxoro ahli to‘g‘risida ushbu tarixiy ma’lumotni keltiradi: “Buxoroda madrasalar ko‘p bo‘lsa-da, xalq ortiq nodon, siyosiy fikr degan gaplar hech ham yo‘q. Rusiya inqilobi haqida hech narsa anglamaydurlar. Nima bo‘lsa ham Buxoroda o‘zgarish ehtimoli juda uzoqdir”⁴. Shuningdek, Buxoro ahlining siyosiy saviyasi haqida o‘sha xufiyaning quyidagi so‘zlari tasdiqlaydi: “Buxoro bozorlarida uchrasha turg‘on qishloqlardan durust ma’lumot ololmadim. Sababi esa, ular, birinchidan, shaharga ish bilangina kelganliklaridan so‘zlashib o‘lturishga vaqtlari yo‘qdur. Ikkinchidan, siyosatdan gapirishga amirning xufiyalaridan qo‘rqadurlar, chunki amirning xufiyalari nihoyatda ko‘p bo‘lib, siyosiy bir gap eshitsalar, ushlab darrov zindonga soladilar”⁵, mulohazalari ham aks etadi. Ushbu tarixiy manbalar, dalillar shuni ko‘rsatadiki, nafaqat Buxoro amirligi balki, Xiva va Qoqon xonliklarida ham xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy ahvoli achinarli holatda bo‘lgan. Chor hukumati doimo shu tanglikni saqlab qolishni nazorat qilgan, taraqqiyotga to‘sqinlik qilishgan. Mahalliy amaldorlar ham ularga yon bosishgan, dastak bo‘lishgan.

Ko‘rinadiki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida istibdod ko‘lankasi keng quloqch yoydi. Iskanja va istibdodda yashab kelayotgan xalqqa taraqqiyot shamoli “Tarjimon” hamda “Vaqt” singari gazetalar orqali kirib keldi. Bunda Ismoil Gapirinskiyning nomi muhim ahamiyat ega. Uning Tarjimon gazetasi Turkistonga yangi davr g‘oyalarining kelishiga imkon tug‘diribgina qolmay, 1893-yil o‘zi ham Samarqand va Buxoroga kelishi, o‘zbek ziyolilaridan Mahmudxoja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy bilan tanishi, hatto Buxoroda usuli jadid maktabini ochishi xalq hayotini yaxshilash va taraqqiy etish uchun ilk qadam bo‘ldi. Gaspirinskiy boshlagan yangilik g‘oyalari jadidlar harakatiga asos bo‘ldi.

⁴ Ўша китоб, 15-бет

⁵ Ўша китоб, 15-бет

XX asrning birinchi choragida o‘zbek adabiyoti tarixi aynan jadidlar harakati bilan e’tirof etiladi. Bu davrga kelib, adabiy muhit siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘lanadi. Shu jihatdan o‘zbek adabiyoti XX asrning birinchi choragida milliy uyg‘onish davri nomini oladi. Ya’ni adabiyotimizning bosh mavzusi ishq emas, erk, ozodlik, hurlikka almashadi. Bu davr ijodkorlari bo‘lmish jadidlar nafaqat qalam tebratishadi, balki xalq ozodligi, erki uchun har jabhada faol harakat qilishadi. Millatning g‘aflat uyqusidan uyg‘onishi uchun siyosiy hayotda ham o‘z qarashlarini ifoda etishadi, qo‘yilgan maqsad yo‘lida sobit qadam tashlashadi.

Bilamizki, jadidchilikning mohiyati, tarixi, kelib chiqish omillari, shuningdek, jadidlar va ularning faoliyatlari haqida ko‘plab tarixiy va ilmiy asarlarda salmoqli ma’lumotlar keltirilgan. Bu jabhada tarixshunos va adabiyotshunos olimlarimizning xizmatlari beqiyos. Dunyo miqyosida jadidchilik harakatiga oid keng ko‘lamli tadqiqotlar, ilmiy konfrensiyalar hamda bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz tadqiq etayotgan manzalarda ham jadidlarning shakllanishi haqida quyidagi omillar keltiriladi: “...jadidlar XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida maydonga chiqdilar. Lekin ularning tarix sahnasida paydo bo‘lishlarida ikki omil - tarixiy ijtimoiy sharoit va davrning yangi g‘oyalarini olg‘a surgan gazetalar bilan birga uchinchi omil Muqimiy va Furqatlar boshlab bergan o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti ham muhim rol o‘ynaydi ”⁶. Shu o‘rinda Muqimiy va Furqatlarning jadid emasligi, ular ma’rifatparvarlik adabiyoti vakillari ekanligi izohlanadi.

Jadidlar o‘z nomi bilan yangilik tarafdorlari va targ‘ibotchilari sifatida maydonga chiqdilar. Bu haqda Abdulla Badriyning “Yosh buxoroliklar kimlar” degan risolasidagi quyidagi fikrlar keltiriladi: “... onlarning fikriy hayollari va muddaolari biz, bechora va qashshoqlarni g‘urbatdan, ya’ni amirlar, beklar va boylarning zulmlaridan ozod qilmoq va bizlarning rohatimiz va tinchligimiz uchun harakat va taraddud qilmoqdir”⁷. O‘sha kezlarda “jadid” va “qadim” orasida keskin baxs-munozaralar ketdi. Bu bahs madaniyat, ma’rifat, millat taqdiri uchun hayot-mamot

⁶ Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: “О’ЗБЕКИСТОН”НМИУ, 2008 й; , 16-бет

⁷ Ўша китоб, 16-бет

masalasi edi. Taraqqiyparvar siymolar har bir sohada yangilanishga chuqur ehtiyoj sezidilar va bu yo‘lda faol sa’y-harakat qildilar. Ularning asosiy g‘oya va maqsadlari (davr voqealıklaridan kelib chiqib, ba’zan o‘zgarib turgan bo‘lsa-da) quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitusion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish⁸. Tom ma’noda jadidlar Turkiston xalqlari hayotini o‘zgartirib, mustaqil o‘zbek davlatini qurmoqchi bo‘lganlarini muallif ko‘rsatib o‘tadi. Shu o‘rinda Naim Karimov jadid harakatining yo‘lboshchisi, tashkilotchilari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonovlar bilan birga islom dinining taniqli tashviqotchisi Abdurashid Ibrohimovning ham nomini keltiradi. Bu haqda tarixchi va sharqshunos olim Boymirza Hayitning “Turkistonda jadidchilik va uni tugatilishi” maqolasida qayd etilgan quyidagi qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi: “Milliy va siyosiy hurriyat orzusi, - jadidchilik harakatining bir parchasi ekanligini ilk bora o‘rtaga tashlagan odam aslan Buxoro fuqarosi, lekin Sibiriya yashagan qozi Abdurashid Ibrohim(1858-1940) bo‘lgan edi”⁹. Shuningdek, muallif Xislat, Miskin, Tavallo, Hoji Muin, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, G‘ulom Zafariy, Abdulla Qodiriy, Elbek kabi jadidlar faoliyati va ularning XX asr boshlaridagi adabiy-siyosiy muhitda tutgan o‘rni haqida atroflicha to‘xtaladi.

Ayniqsa, jadidlarning siyosiy mavqelarini yanada teranroq anglatish uchun Naim Kraimov Turkistonda siyosiy partiyalar faoliyatini yaxshi o‘rgangan fransuz razvedkachisi mayor Lyakostaning 1906-yilda o‘z mamlakatiga yo‘llagan xufiyanomasida yozgan quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Turkiston o‘lkasidagi eng e’tiborli va kelajagi porloq siyosiy kuch sotsial-demokratlar (bolsheviklar va

⁸ Ibragimov, S.E., (2021). JADIDCHILIK HARAKATI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, (5), 121.

⁹ Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: “О‘ЗБЕКISTON”НМИУ, 2008 й; , 19-бет

mensheviklar) yoki sotsial-inqilobchilar (eserlar), yo kadet va liberallar emas, balki o‘zbek jadidlaridir”¹⁰.

Yuqorida nomlari tilga olingan jadidlarimiz faoliyatlari davomida xalq manfaati, ozodligi yo‘lida xizmat qilishdi. Xususan, jadidlar xalqning umumiy saviyasini ko‘tarish, barcha sohada zamonaviy fanlarni egallagan mutaxassislarni tarbiyalash va ular yordamida davlat idoralarini yerlilashtirish, va shu tarzda mustamlakachilarni Turkiston tasarrufidan chiqarib yuborish maqsadida “usuli jadid” maktablarini tashkil etishdi. Shuningdek, milliy matbuot, adabiyot va teatrni yaratishga ham katta e‘tibor berishdi.

Xususan, jadidlarning adabiyot sohasida kiritgan yangiliklari haqida “XX asr adabiyoti manzaralari”da berilgan qaydlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo Behbudiyning 1911- yili yozilgan “Padarkush” nomli ilk sahna asarini yozish orqali o‘zbek adabiyotida dramaturgiya yo‘nalishiga poydevor qo‘yganligini tilga olish joiz. Muallif asarda savodsizlik oqibatida o‘qimagan bolaning padarkushga – otasining qotiliga aylanish jarayonlarini yoritadi. Aslida bu bola o‘sha davrdagi ma‘rifatdan yiroq, qoloq, minglab savodsiz o‘zbek xalqining timsoli ekanligini, bunday xalqning kelajagi tanazzulga yuz tutishi mumkinligini yorqin namoyon etib beradi.

Behbudiy boshlab bergan yo‘lni uning izdoshlari, jadidlar davom ettirdilar. Bu borada uning shogirdi Hoji Muin jadid dramaturgiyasiga o‘zining “To‘y”, “Eski maktab-yangi maktab”, “Boy ila xizmatkor”, “Juvonbozlik qurboni,” “Qozi va muallim” kabi sahna asarlari bilan hissa qo‘shdi. Ayniqsa, uning xotin-qizlarning kamsitilishi, ularga bo‘layotgan zo‘ravonliklarni fosh etuvchi 1916-yilda yozilgan “Mazluma xotin” sahna asari jasoratli tusda yozilganligi bilan e‘tiroflarga sazovor bo‘lgan. N.Karimov jadid dramaturgiyasini tadqiq etar ekan, Hoji Muin kabi “serhosil” dramaturglarning 1915-1916 yillarda, Fitrat, Cho‘lpon, Hamzalarning 1917-1918 yillarda ijod qilganliklariga to‘xtalib o‘tadi. Inqilobdan keyin yaratilgan sahna asarlarda mavzu, badiiy tasvir vositalari takomillashib boradi.

¹⁰ Ўша китоб, 18-бет

Bilamizki, sahna asarlari yozish Fitrat adabiy faoliyatining muhim qirrasini hisoblanadi. Uning dramaturgik ijodi “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari”da shartli ravishda ikki bosqichga ajratiladi:

- 1) 1917-1921-yillar;
- 2) 1923-1927 – yillar.

Dastlabki bosqichda uning “Mavludi sharif”, “Qon” (bizgacha yetib kelmagan), “O‘g‘uzxon”, “Begjon”, “Abo Muslim”, “Temur sag‘anasi”, “Chin sevish”, ikkinchi bosqichda “Hind ixtilolchilari”, “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni”, “Arslon”, “Vose qo‘zg‘oloni” kabi sahna asarlari yozilgan. Fitrat ijodida sahna asarlarning asosiy g‘oya vatanparvarlik, hurlik hisoblanadi. Shuning uchun ham uning diqqat markazida hamisha faqat bir masala- mustamlakachilikka qarshi erk va hurriyat masalasi turadi.¹¹

Shuningdek, yuqorida nomlari tilga olingan jadidlar bilan bir qatorda Hamza, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, G‘ulom Zafariylar ham o‘zbek adabiyotida sahna asarlarining boyishiga munosib hissa qo‘shdilar. Ular yaratgan asarlarda davr muhiti aks etadi, qoloqlik, zo‘ravonlik, ilmsizlik oqibatlarini tasvirlanadi. XX asrning boshida o‘zbek adabiyotida dramaturgiya shu taxlit shakllandi va taraqqiy etdi.

Jadidlar ijodida biz yana an‘anaviy mumtoz adabiyotdagi janrlarda yaratilgan asarlarda mavzu va mohiyatning o‘zgarishini, yangi she‘riy vazn hamda nasriy janrlar shakllanishini, xajviy-satirik asarlar ommalashishini, tarjima asarlar yuzaga kelishini, umuman o‘zbek adabiyotida badiiy-estetik tamoyillarning yangilanishi va yangi janrlar bilan boyishini ko‘ramiz.

*Ilm erur beshak, bilingiz, dardimizning chorasi,
 Ilmsiz bitmas marazu jahlimizning yarasi,
 Ilm ila bo‘lg‘ay musaffo ko‘nglimizning qorasi,
 Guldin ortiq ilgimizg‘a kirsam ilming xorasi,
 Ilma aylayluk taraddud, vaqt g‘animat, do‘ston!
 Ilm ila, Miskin kabi, vayronalar bo‘ston!*

¹¹ Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: “О‘ЗБЕКИСТОН”НМИУ, 2008 й; , 123-бет

“Yig‘la, ey ko‘z, holimizga...” so‘zlari bilan boshlanuvchi shoir Miskin qalamiga mansub ushbu musaddasda xalq va mamlakat hayotidagi hamma nuqson va illatlarning ilmsizlik tufayli sodir bo‘lgani talqin etiladi. Musaddasda ma’rifatparvarlik kuylangan.

Ayo do‘stlar, ajoyib, yengil yuradi moshinam,

Har chokda yeti yo‘ldin ipni uzadi moshinam.

Hamza ijodida o‘rin olgan yuqoridagi misralar “moshinam” radifli g‘azalidan olingan bo‘lib, ushbu g‘azalda shoir hayot mashaqqatlarini hajviy bo‘yoqlar bilan tasvirlaydi.

“Manzaralarda” keltirilgan misralarda biz an’anaviy mumtoz adabiyotdagi janrlarda yaratilgan asarlarda mavzu va mohiyatning o‘zgarishini ko‘radigan bo‘lsak, quyida Cho‘lpon ijodiga mansub yangi barmoq vaznida bitilgan satrlarga duch kelamiz:

Tilak yiroq, yog‘dusi-da ko‘rinmas,

Oy ketarmen, yil ketarmen, yetilmas,

Tuyg‘um uning izlariga urilmas,

Bu yo‘llarda balki shafqat etilmas.

Yana “tilak”, “tilak”, deya ketarmen,

Bir jon ekan, mayli, qurbon etarmen!

Cho‘lpon “Tilak yo‘lida” nomli bu she‘rida maqsad qilgan milliy istiqlol g‘oyasidan aslo qaytmasligi, kerak bo‘lsa jonini fido qilishga tayyorligini baralla ifoda etadi.

Lirikada bo‘lgani kabi nasrda ham yangilanishlar yuzaga chiqdi. Jadid nasri o‘zbek adabiyotida ilk bor realistik qissa, hikoya, ocherk va esse-dialog janrlarining namunalarini yaratdi va shu jarayonda zamonaviy o‘zbek tilining shakllanishiga sharoit hozirladi. Jumladan, Fitrat “Munozara” asari bilan jadid nasrini boshlab berdi. Ayniqsa Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon ijodida jadid nasrining go‘zal namunalarini uchratamiz. “Otgan kunlar” va “Kecha va kunduz” romanlari nafaqat XX asrning balki o‘zbek adabiyotining nodir namunalariga aylandi.

Xullas, jadidlar milliy istiqlol uchun kurashishdi. Ozod va hur davlat qurishni maqsad qilishdi. Jamiyat hayotining yaxshilashuvi va yangilanishi yo‘lida o‘zlarining ijtimoiy va adabiy faoliyatlari bilan xizmat qilishdi. Adabiy-siyosiy muhitda faol qatnashishdi. Ular mustaqil davlatni barpo etish g‘oyasini amalga oshirishga kirishishdi, ammo bu harakat kuchli va birlashgan partiya yo tashkilotga ega bo‘lmaganligi hamda xalq ommasini hali uyg‘ota olmaganligi sababli ularning mustaqil o‘zbek davlatini barpo etish orzusi ro‘yobga chiqmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: “О‘ЗБЕКISTON”НМИУ, 2008 й;
2. Ibragimov, S.E., (2021). JADIDCHILIK HARAKATI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, (5
3. Karimov N., Mamajonov S. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. –T.: «O‘qituvchi», 1999.
4. Milliy uyg‘oniy davri o‘zbek adabiyoti. Hammualliflar: Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizaev, Sunnat Ahmedov. Toshkent: “Ma’naviyat”;
5. Qosimov B., Dolimov U. «Ma’rifat darg‘alari». –T.: 1990.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. “Ma’naviyat”. –T.: 2002.